



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2026"

MAMLAKATIMIZ IQTISODIYOTIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI YUKSALTIRISHDA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING ZAMONAVIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ ЧАСТНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В ПОВЫШЕНИИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ЭКОНОМИКИ НАШЕЙ СТРАНЫ

MODERN TRENDS OF PRIVATE ENTREPRENEURSHIP DEVELOPMENT IN INCREASING COMPETITIVENESS IN OUR COUNTRY'S ECONOMY

Soyibjonov Islomjon Sodiqjon o'g'li

*Namangan davlat universiteti "Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes" kafedrası o'qituvchisi
soyibjonovislombek93@gmail.com*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada mamlakatimiz iqtisodiyotida raqobatbardoshlikni yuksaltirishda xususiy tadbirkorlikning ahamiyati va uning zamonaviy rivojlanish tendensiyalari tahlil qilinadi. Xususiy sektorning iqtisodiyotdagi roli, tadbirkorlik muhitini takomillashtirishga qaratilgan islohotlar, innovatsiyalarni joriy etish imkoniyatlari va raqobat muhitini rivojlantirish yo'llari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, mamlakatimizda xususiy tadbirkorlikning barqaror rivojlanishiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari xususiy tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish va uning raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalarni o'z ichiga oladi.*

Kalit so'zlar: *xususiy tadbirkorlik, raqobatbardoshlik, iqtisodiy rivojlanish, innovatsiyalar, bozor islohotlari.*

KIRISH

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning asosiy maqsadlaridan biri bozor munosabatlarini rivojlantirish, investitsion jozibadorlikni oshirish va xalqaro iqtisodiy makonga integratsiyalashuvni jadallashtirishdan iborat. Shu jarayonda xususiy tadbirkorlik faoliyati iqtisodiy taraqqiyotning muhim drayveri sifatida e'tirof etilib, iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlash, innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ish o'rinlarini yaratish va aholi turmush darajasini oshirishga xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda O'zbekistonda xususiy sektorni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. So'nggi yillarda tadbirkorlik subyektlari uchun qulay biznes muhitini shakllantirish, soliq yukini kamaytirish, kreditlash tizimini takomillashtirish, investitsiyalarni jalb qilish va tadbirkorlarning huquqiy himoyasini kuchaytirish bo'yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, "Tadbirkorlik faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi qonun,



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2026"

tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning turli dasturlari va bank-moliya tizimidagi islohotlar xususiy sektor rivojlanishiga keng yo'l ochmoqda².

Biroq, mavjud islohotlarga qaramasdan, xususiy tadbirkorlikning rivojlanish sur'ati va uning iqtisodiyotga qo'shayotgan hissasi oshirish lozim. Buning uchun moliyaviy resurslardan samarali foydalanish, investitsion muhitdagi barqarorlikni ta'minlash, soliq musabatlarni takomillashtirish, ishlab chiqarish infratuzilmasini yanada yaxshilash, innovatsiyalarni joriy etish kabi masalalarni ijobiy yechim qilish orqali erishish mumkin. Ayniqsa, xalqaro bozorlarga chiqishdagi muammolar, mahsulot va xizmatlar sifatini xalqaro standartlarga moslashtirish zarurati, ishbilarmonlik madaniyatining takomillashtirilishi kabi masalalar raqobatbardosh iqtisodiyot barpo etishda hal qiluvchi omillar hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, xususiy tadbirkorlik faoliyatining bugungi holatini chuqur tahlil qilish va uning mamlakat iqtisodiyotidagi raqobatbardoshlik darajasiga ta'sirini baholash orqali samarali strategiyalarni ishlab chiqish zarur. Xususiy sektorning barqaror rivojlanishi iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, yangi texnologiyalarni joriy etish va innovatsion mahsulotlarni yaratish uchun qulay sharoit yaratadi³.

Tadqiqot ishiga oid adabiyotlar tahlili.

Iqtisodiyotda raqobatbardoshlik tushunchasi Adam Smit, Devid Rikardo kabi klassik iqtisodchilar tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, ular bozor iqtisodiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchi raqobat ekanligini ta'kidlaydi⁴. Keyinchalik, Jozef Shumpeter (1911) innovatsion tadbirkorlik g'oyasini ilgari surib, raqobatni iqtisodiy rivojlanishning asosi sifatida ko'rsatgan⁵.

Mahalliy tadqiqotchilar orasida Sh.Xabibullayev (2020) xususiy tadbirkorlikni iqtisodiy islohotlarning muhim tarkibiy qismi sifatida baholab, uning mamlakatimiz iqtisodiyotidagi roli va istiqbollari o'rganadi. A. Mahmudov (2021) esa tadbirkorlik muhitini yaxshilash orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlash masalasiga e'tibor qaratadi⁶.

Xorijiy tadqiqotchilar orasida Maykl Porterning (1990) "Competitive Advantage of Nations" asari muhim o'rin egallaydi. U mamlakatning raqobatbardoshligini aniqlovchi asosiy omillarni tahlil qilib, biznes muhitini rivojlantirishda xususiy sektorning ahamiyatini ta'kidlaydi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha qator davlat dasturlari qabul qilindi. "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" doirasida tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash, biznes muhitini yaxshilash va investitsiya muhitini mustahkamlash bo'yicha aniq chora-tadbirlar belgilangan.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni "Tadbirkorlik sub'ektlarining eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" – T.: 2022 yil 21 dekabr, PF-268-son.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni "Tadbirkorlik sub'ektlarining eksport salohiyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida". – T.: 2022 yil 30 sentyabr, PF-228-son.

⁴ Gulomov S.S. Tadbirkorlik va kichik biznes. –T.: TDAU, 1998.

⁵ Shumpeter Y. Teoriya ekonomicheskogo razvitiya – M.: 1982. S. 159.

⁶ Abduraxmonov S. S. O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISHI //SCHOLAR. – 2023. – T. 1. – №. 22. – C. 4-16.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2026"

Sh.Jo'raev (2022) tadqiqotlarida O'zbekistonda kichik va o'rta biznesning iqtisodiy rivojlanishga qo'shayotgan hissasi tahlil qilinib, soliq yukining kamaytirilishi va kredit siyosatini liberallashtirish orqali tadbirkorlikni rag'batlantirish masalasi ko'rib chiqiladi⁷.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqot doirasida mamlakatimiz iqtisodiyotida xususiy tadbirkorlikning zamonaviy rivojlanish tendensiyalari va uning raqobatbardoshlikni yuksaltirishdagi ahamiyati tahlil qilindi. Tadqiqotni amalga oshirishda bir necha ilmiy usullardan foydalanildi. Avvalo, teoretik-tahliliy yondashuv asosida xususiy tadbirkorlik va raqobatbardoshlik bo'yicha ilmiy manbalar, normativ-huquqiy hujjatlar va milliy rivojlanish strategiyalari o'rganildi. Shu bilan birga, turli davlatlarda xususiy tadbirkorlikning rivojlanish xususiyatlari tahlil qilinib, ularning mamlakatimiz sharoitiga mos keladigan jihatlari o'rganildi.

Iqtisodiy-statistik metod asosida xususiy tadbirkorlikning rivojlanish dinamikasi tahlil qilinib, sohaning iqtisodiyotga ta'siri baholandi. Bunda rasmiy statistik ma'lumotlar, iqtisodiy ko'rsatkichlar hamda xususiy sektordagi o'zgarishlar tahlil qilindi.

Shuningdek, sistemaviy yondashuv asosida xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyotga ta'siri kompleks ravishda o'rganildi. Xususiy sektor faoliyati, uning bozordagi raqobat muhitiga ta'siri va investitsiyaviy jozibadorligi tahlil qilindi. Bu metodlar tadqiqot natijalarini asoslantirish, aniq xulosalar chiqarish va amaliy takliflar ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etdi. Tadqiqot doirasida olingan ma'lumotlar va tahlillar mamlakatimizda xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish va raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqish imkonini berdi.

Tahlil va natijalar.

Zamonaviy global iqtisodiy sharoitda raqobatbardoshlik davlatlar va korxonalar uchun muvaffaqiyatning asosiy omillaridan biriga aylangan. Raqobatbardoshlikni oshirish orqali mamlakatlar nafaqat ichki bozorda, balki xalqaro miqyosda ham o'z mavqelarini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Xususiy tadbirkorlik esa iqtisodiyotning dinamik rivojlanishi, yangi ish o'rinlarining yaratilishi, innovatsiyalarning joriy etilishi va bozor munosabatlarining yanada rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotida raqobatbardoshlikni oshirishda xususiy tadbirkorlik faoliyatining ahamiyati ortib bormoqda. Xususiy tadbirkorlar nafaqat yalpi ichki mahsulot (YaIM)ning asosiy yaratuvchisi, balki bozor iqtisodiyotining asosiy tayanchlaridan biridir. Shu bilan birga, xususiy tadbirkorlikning hozirgi holati va uning raqobatbardoshlikni oshirishdagi roli bir qator ichki va tashqi omillarga bog'liq⁸.

Ushbu mavzuni o'rganish orqali mamlakatimizda xususiy tadbirkorlikning rivojlanish darajasi, raqobatbardoshlikni oshirishga qo'shgan hissasi, shuningdek, ushbu sohada mavjud bo'lgan muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari haqida chuqur tushuncha hosil qilish mumkin. Xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va uning salohiyatini to'liq ro'yobga

⁷ Abduraxmonov S. S. O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISHI //SCHOLAR. – 2023. – T. 1. – №. 22. – C. 4-16.

⁸ Siddikov, A.M., Baltaboev, M.T. and Abduraxmonov, S.S. 2022. Formation and Development of Small Business in Uzbekistan. Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance. 3, 11 (Nov. 2022), 76-80.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2026"

chiqarish orqali mamlakatimiz iqtisodiyotining yanada rivojlanishiga hissa qo'shish imkoniyati mavjud.

Bugungi kunda xususiy tadbirkorlik milliy iqtisodiyotning turli tarmoqlarida mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishning muhim manbai bo'lib xizmat qilmoqda⁹.

1-rasm. Xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi ahamiyati (muallif ishlanmasi).

Xususiy tadbirkorlik milliy iqtisodiyotning asosiy tarkibiy qismi sifatida quyidagi vazifalarni bajaradi:

	Aholini ish bilan ta'minlash
	YalMga hissa qo'shish
	Iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish
	Soliq tushumlari va davlat byudjetiga hissa qo'shish
	•Eksport salohiyatini oshirish
	Ichki bozorni to'ldirish
	Iqtisodiyotga innovatsiyalarni joriy etish va boshqalar

Xususiy tadbirkorlikning mamlakatimiz iqtisodiyotidagi ahamiyatini tushunish uchun uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi o'rnini chukkurroq tahlil qilish lozim. Xususiy tadbirkorlik faoliyatining asosiy maqsadi - yangi imkoniyatlar yaratish, bozorning raqobatdoshligini oshirish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash va mamlakatning iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlashdir¹⁰. 1-rasmi bo'yicha xususiy tadbirkorlik faolitini mamlakatimiz iqtisodiyotida ahamiyatiga to'xtaladigan bo'lsak, iqtisodiy o'sishning asosiy drayveri, balki aholini ish bilan ta'minlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Mustaqillik yillaridan buyon mamlakatda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan keng ko'lamli iqtisodiy islohotlar amalga oshirildi. Xususan, soliq yukini yengillashtirish, ma'muriy to'siqlarni bartaraf etish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish orqali xususiy sektorning iqtisodiyotdagi roli sezilarli darajada kuchaydi.

Aholining yosh tarkibi o'sib borayotgan O'zbekiston sharoitida yangi ish o'rinlarini yaratish iqtisodiyot uchun muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Xususiy tadbirkorlik bu masalani samarali hal qilish uchun eng mos iqtisodiy mexanizm sifatida namoyon bo'lmoqda. Kichik va o'rta biznes sub'ektlari qishloq xo'jaligi, sanoat, xizmat ko'rsatish va hunarmandchilik sohalarida aholini keng miqyosda ish bilan ta'minlab kelmoqda. Ayniqsa, qishloq hududlarida xususiy tadbirkorlik aholining bandligini ta'minlash orqali ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga hissa qo'shmoqda¹¹.

O'zbekiston hukumati xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish va aholini ish bilan ta'minlash jarayonida uning ta'sirini oshirish maqsadida rag'batlantiruvchi siyosat yuritmoqda. Xususan, tadbirkorlar uchun imtiyozli kreditlar berish, biznesni qo'llab-

⁹ G'ulomov S.S. Tadbirkorlik va kichik biznes. -T.: TDAU, 1998.

¹⁰ Abdulxakimov Z., Abduraxmonov S. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlanishini nazariy masalalari. - 2024.

¹¹ Кенжаев И.Э., Балтабаев М.Т., Абдурахманов Ш.Ш. Иностранные Инвестиции В Малый Бизнес //Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science. - 2022. - Т. 3. - №. 5. - С. 159-164.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2026"

quvvatlash infratuzilmasini yaratish hamda davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish kabi chora-tadbirlar shular jumlasidandir.

Mamlakatimizda xususiy tadbirkorlik faoliyatini iqtisodiyotga umumiy xissasini tahlil qiladigan bo'lsak, 2010-yillarda O'zbekiston iqtisodiyotida davlat sektori ustunlik qilardi. Xususiy tadbirkorlikning YaIMga hissasi nisbatan past edi (taxminan 30-40% atrofida). Asosan, qishloq xo'jaligi, kichik savdo va xizmat ko'rsatish sohalarida xususiy tadbirkorlik faol edi.

2016-yilda O'zbekistonda iqtisodiy islohotlar jadallashtirildi. Xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha chora-tadbirlar (soliq imtiyozlari, byurokratik to'siqlarni kamaytirish, kreditlar) amalga oshirildi. Natijada, xususiy tadbirkorlikning YaIMga hissasi sezilarli darajada oshdi (taxminan 45-50% gacha).

2020-yilga kelib, xususiy tadbirkorlikning YaIMga hissasi 50-55% atrofida bo'ldi. Xususiy sektor savdo, xizmat ko'rsatish, qishloq xo'jaligi va yengil sanoat kabi sohalarida kengaydi.

Pandemiya davrida 2020-2021 yillarda xususiy tadbirkorlik subyektlari qiyinchiliklarga duch keldi, ayniqsa savdo, turizm va xizmat ko'rsatish sohalarida. Biroq, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralari (soliq imtiyozlari, subsidiyalar, kreditlar) tufayli xususiy sektor tez tiklandi. 2021-yilga kelib, xususiy tadbirkorlikning YaIMga hissasi 55% atrofida saqlanib qoldi¹². Keyingi yillarda ham iqtisodiy islohotlar davom ettirildi, xususan, xususiy tadbirkorlikni rag'batlantirish bo'yicha yangi qarorlar va dasturlar joriy etildi. Xususiy sektorning YaIMga hissasi 60% ga yaqinlashdi. Elektron tijorat, transport, qurilish va turizm sohalarida xususiy tadbirkorlikning roli sezilarli darajada oshdi.

Zamonaviy iqtisodiyotda raqobatbardoshlik mamlakatning barqaror rivojlanishi va global bozordagi mavqeini mustahkamlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Har qanday davlatning iqtisodiy salohiyati, asosan, uning ichki bozorida raqobat muhitining qanchalik rivojlanganligi va xususiy tadbirkorlikning qanchalik samarali faoliyat yuritayotganiga bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish nafaqat iqtisodiy o'sishga, balki milliy iqtisodiyotning jahon bozorida raqobatbardoshligini oshirishga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng, bozor iqtisodiyoti tamoyillariga asoslangan islohotlarni amalga oshirish jarayonida xususiy sektorni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi. Ayniqsa, 2017-yildan boshlab amalga oshirilgan keng ko'lamli iqtisodiy islohotlar natijasida xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash uchun huquqiy va institutsional asoslar mustahkamlandi. Davlatning iqtisodiyotdagi roli bosqichma-bosqich kamaytirilib, tadbirkorlik subyektlari uchun erkin raqobat muhitini yaratishga intilish kuchaytirildi.

Xususiy tadbirkorlik va iqtisodiy raqobatbardoshlik o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, ushbu bog'liqlik turli iqtisodiy nazariyalar asosida izohlanadi. Jumladan:

¹² <https://stat.uz/uz/>



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2026"

Adam Smitning "Ko'rinmas qo'l" nazariyasining bozor iqtisodiyoti bo'yicha asosiy g'oyasi shundan iboratki, tadbirkorlar o'z manfaatlarini ko'zlagan holda iqtisodiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xususiy sektorning o'sishi resurslar samarali taqsimlanishiga va bozorda sog'lom raqobat muhitining shakllanishiga olib keladi¹³.

Jozef Shumpeterning "Innovatsion raqobat" nazariyasida keltirilgan fikricha, xususiy tadbirkorlar bozorga yangi texnologiyalar va innovatsiyalarni olib kirish orqali iqtisodiy o'sishga hissa qo'shadi. Bu jarayon "kreativ destruksiya" (yaratuvchan buzilish) deb ataladi va eski texnologiyalarni yangilari bilan almashtirish orqali raqobatbardoshlikni oshiradi¹⁴.

Maykl Porterning "Raqobat ustunligi" nazariyasida iqtisodiy raqobatbardoshlikni ta'minlash uchun to'rtta asosiy omilni ajratib ko'rsatadi¹⁵:

- Ishlab chiqarish omillari (mehnat, kapital, texnologiya)
- Talab sharoitlari (iste'molchilarning sifatlarga bo'lgan talabi)
- Qo'shilgan qiymat zanjiri (sanoat tarmoqlari o'rtasidagi bog'liqlik)
- Raqobat muhitining rivojlanganligi

Bu nazariyaga ko'ra, xususiy tadbirkorlik aynan raqobatni rag'batlantirish orqali milliy iqtisodiyotning global bozorda kuchayishiga sabab bo'ladi.

O'zbekiston 2010-yillardan boshlab, ayniqsa 2016-yildan keyin, chuqur iqtisodiy islohotlar bosqichiga kirdi. Bu jarayon davomida xususiy tadbirkorlik faoliyati iqtisodiyotning asosiy tayanchlaridan biriga aylandi. Xususiy sektor nafaqat ish o'rinlarini yaratish, balki iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, innovatsiyalarni rag'batlantirish va eksport salohiyatini kuchaytirish orqali mamlakat iqtisodiyotini yangi bosqichga olib chiqdi.

O'zbekiston 2017 yildan buyon iqtisodiy islohotlar yo'lida xususiy sektorning ulushini oshirishga katta e'tibor bermoqda.

2010 yilda xususiy sektor YaIMning 50.3% ini tashkil qilgan bo'lsa, 2015 yilga kelib bu ko'rsatkich 56.5% ga, 2020 yilda esa 58.2% ga ko'tarildi. 2024 yilga kelib xususiy sektorning YaIMdagi ulushi 63.8% ga yetdi. Bu xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyotda tobora muhimroq rol o'ynayotganini ko'rsatadi.

2010 yilda 5.1 million yangi ish o'rinlari yaratilgan bo'lsa, 2015 yilga kelib bu ko'rsatkich 6.2 millionga, 2020 yilda esa 7.8 millionga yetdi. 2024 yilga kelib yangi ish o'rinlari soni 9.3 millionga yetdi. Bu xususiy sektorning bandlikni yaratishdagi muhim rolini ko'rsatadi.

1-grafik. Xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyotga ta'siri 2010-2024 yillar ko'rsatkichlari¹⁶.

¹³ Abdulxakimov Z., Abduraxmonov S. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlanishini nazariy masalalari. – 2024.

¹⁴ Shumpeter Y. Teoriya ekonomicheskogo razvitiya – M.: 1982. S. 159.

¹⁵ Xodiev B.Yu., Qosimova M.S., Samadov A.N. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik. O'quv qo'llanma. –T.: TDIU, 2010

¹⁶ <https://stat.uz/uz/>




"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2026"



2010 yilda xususiy sektorning eksport hajmi 3.2 milliard dollar bo'lsa, 2015 yilga kelib bu ko'rsatkich 6.5 milliard dollarga, 2020 yilda esa 12.0 milliard dollarga ko'tarildi. 2024 yilga kelib xususiy sektorning eksport hajmi 19.5 milliard dollarga yetdi. Bu xususiy tadbirkorlikning eksport salohiyatini oshirishdagi muhim rolini ko'rsatadi.

3-grafik. Xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash uchun ajratilgan kreditlar (trln so'm)¹⁷



O'zbekiston iqtisodiy siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lgan xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash uchun tijorat banklari va moliyaviy institutlar tomonidan ajratilayotgan kreditlar hajmi doimiy ravishda o'sib bormoqda. Quyidagi asosiy tendensiyalar kuzatilmoqda:

2010-2016-yillar – Kredit ajratish hajmi asta-sekin oshib bordi, lekin davlat banklari ustunlik qildi. Kreditlash asosan yirik ishlab chiqarish korxonalariga yo'naltirilgan edi.


4-grafik. Xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash uchun ajratilgan kreditlar (foizda,%)

¹⁷ <https://stat.uz/uz/>

¹⁸ <https://stat.uz/uz/>



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2026"



2017-2021-yillar – Keng ko'lamli iqtisodiy islohotlar natijasida xususiy sektorni moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari takomillashtirildi. Xususan, mikrokreditlar va imtiyozli kreditlash mexanizmlari kengaytirildi.

2022-2024-yillar – Kreditlash hajmi keskin oshdi. Tijorat banklari va xalqaro moliyaviy institutlar tomonidan xususiy tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirish ko'lamining sezilarli darajada oshgani kuzatildi.

Xulosa va takliflar

Tadqiqotning asosiy tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, xususiy tadbirkorlik sektori rivojlanishi uchun davlat tomonidan yaratilgan siyosiy va iqtisodiy sharoitlar muhim omil bo'lib, bu sektorning o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Keyingi yillarda islohotlar va yangi tashabbuslar (masalan, xususiy tadbirkorlik uchun preferensiyalar, soliq imtiyozlari, huquqiy bazani yaxshilash) kichik va o'rta biznesning faolligini oshirdi, ammo bu faollikning doimiy va barqaror bo'lishi uchun yanada keng qamrovli islohotlar talab etiladi.

Shuningdek, O'zbekistonning jahon bozorida raqobatbardoshligini oshirishda xususiy tadbirkorlik faoliyatining texnologik modernizatsiyasi hamda zamonaviy biznes uslublariga moslashishi muhim.

Demak, yuqoridagi keltirilgan fikrlar bugungi kunda haqiqatdan ham ahamiyatli deb hisoblaymiz. Hamda bu muammolarni o'z echimini topish dolzarb bo'lib turibdi. Amalga oshirilayotgan islohotlar davomida kichik biznes sub'ektlarini rivojlantirish jabhalaridagi muammolarni hal etish va tegishli chora-tadbirlarini ko'rib borish har birimizning vazifamizga aylanishi kerak.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2026"

Tadqiqot natijalari asosida xususiy tadbirkorlikning raqobatbardoshligini oshirish va mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishiga hissa qo'shish uchun quyidagi takliflar bildiriladi:

?

Moliyaviy qo'llab-quvvatlashni kengaytirish – kichik biznes uchun imtiyozli kreditlar va grantlar berish mexanizmini takomillashtirish. Davlat tomonidan moliyaviy resurslarning ko'payishi, investitsiyalarni jalb qilish va biznesni rivojlantirishga qaratilgan yangi dasturlarni ishga tushirish zarur.

Qonuniy va byurokratik to'siqlarni bartaraf etish – soliq, litsenziyalash va boshqa huquqiy tizimlarni soddalashtirish, tadbirkorlikni rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi holatlarni bartaraf etish zarur.

Innovatsion texnologiyalarni joriy etish – xususiy tadbirkorlikni texnologik modernizatsiya qilish va yangi texnologiyalarni ishlab chiqarishga investitsiyalarni jalb qilish. Tadbirkorlarga raqamli vositalarni qo'llashda yordam beruvchi dasturlar va kurslar tashkil etilishi zarur.

Raqobatni rivojlantirish va monopoliyaga qarshi kurashish – raqobatni rivojlantirish, monopolistik holatlarni kamaytirish va biznes muhitini ochiq va adolatli qilish uchun qonuniy chora-tadbirlar ishlab chiqish.

Eksport imkoniyatlarini kengaytirish – xususiy tadbirkorlarni xalqaro bozorlarga chiqarish, eksportni oshirish uchun zarur infratuzilma va tizimlarni yaratish. Shuningdek, xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga qaratilgan strategiyalar ishlab chiqish.

Kichik biznesni qo'llab-quvvatlash – kichik biznes subyektlarini yirik sanoat korxonalari bilan integratsiya qilish, kooperatsiya tizimlarini rivojlantirish va biznes klasterlarini tashkil etish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni "Tadbirkorlik sub'ektlarining eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" – T.: 2022 yil 21 dekabr, PF-268-son.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni "Tadbirkorlik sub'ektlarining eksport salohiyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida". – T.: 2022 yil 30 sentyabr, PF-228-son.

3. G'ulomov S.S. Tadbirkorlik va kichik biznes. –T.: TDAU, 1998.

4. Shumpeter Y. Teoriya ekonomicheskogo razvitiya – M.: 1982. S. 159.

5. Xodiev B.Yu., Qosimova M.S., Samadov A.N. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik. O'quv qo'llanma. –T.: TDIU, 2010



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2026 "

6. Кенжаев И.Э., Балтабаев М.Т., Абдурахманов Ш.Ш. Иностранные Инвестиции В Малый Бизнес //Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science. – 2022. – Т. 3. – №. 5. – С. 159-164.
7. Siddikov, A.M., Baltaboev, M.T. and Abduraxmonov , S.S. 2022. Formation and Development of Small Business in Uzbekistan. Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance. 3, II (Nov. 2022), 76-80.
8. Abduraxmonov S. S. O 'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISHI //SCHOLAR. – 2023. – Т. 1. – №. 22. – С. 4-16.
9. Abdulxakimov Z., Abduraxmonov S. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlanishini nazariy masalalari. – 2024.
10. <https://stat.uz/uz/>